Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320191

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

RAQAMLI BANK TUSHUNCHASI VA UNING AN'ANAVIY BANKLARDAN FARQI

Toshkent Davlat Itisodiyot Universiteti
To'rtko'l fakulteti 3-bosqich talabasi
TASHPULATOV MUHAMMAD

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada raqamli bank tushunchasi, uning rivojlanish bosqichlari va an'anaviy bank tizimidan asosiy farqlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli banklarning ishlash mexanizmi, texnologik asoslari, mijozlarga taqdim etiladigan xizmatlar va ularning afzalliklari keng yoritilgan. Shuningdek, maqolada raqamli banklarning xavf-xatarlari, kiberxavfsizlik masalalari hamda O'zbekiston bank tizimidagi o'rni va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida raqamli banklarning zamonaviy iqtisodiyotdagi ahamiyati ochib beriladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: raqamli bank, fintech, mobil banking, internet banking, kiberxavfsizlik, innovatsiya, bank tizimi, O'zbekiston

Kirish

So'nggi yillarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi moliyaviy tizimda tub o'zgarishlarga olib keldi. Xususan, bank xizmatlari sohasida raqamlashtirish jarayonlari tezlashib, an'anaviy bank tizimiga muqobil bo'lgan yangi model – raqamli banklar shakllandi.

Moliyaviy xizmatlar sohasidagi raqamli transformatsiya an'anaviy bank tizimlariga muqobil bo'lgan yangi moliyalashtirish modellarining paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda raqamli banklar — bu jismoniy filiallarsiz, faqatgina masofaviy kanallar (mobil ilova va veb-sayt) orqali xizmat ko'rsatuvchi institutlardir. Global miqyosda raqamli banklar va ularga yaqin bo'lgan P2P kreditlash bozori 2024-yilda 139.8 milliard dollarni tashkil etib, 2034-yilga borib 1.38 trillion dollarga yetishi kutilmoqda.

Raqamli va an'anaviy banklarning qiyosiy tahlili: Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bank tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada bank xizmatlari asta-sekin raqamli shaklga o'tib, raqamli banklar tushunchasi paydo bo'ldi. An'anaviy banklar murakkab operatsion xarajatlar, yuqori kapital talablari va jismoniy infratuzilma bilan cheklangan. Mijozlar ko'plab xizmatlardan foydalanish uchun bank binosiga borishi, navbat kutishi va hujjatlarni qog'oz shaklida topshirishi kerak bo'ladi.Raqamli banklar esa texnologiyadan foydalangan holda bu jarayonlarni soddalashtiradi va samaradorlikni oshiradi.

Solishtirma jadval:

Published: 05.06.2026

Cite this article: Tashpulatov Muhammad (2026). Raqamli bank tushunchasi va uning an'anaviy banklardan farqi. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320191

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Farqlash mezoni	An’anaviy Bank	Raqamli Bank
Xizmat ko‘rsatish	Jismoniy filiallar orqali	Faqat raqamli platformalar orqali
Mijozni tasdiqlash	Qog‘oz hujjatlar va shaxsiy ishtirok	Masofaviy KYC va biometrik tekshiruv
Kreditni baholash	Murakkab va uzoq vaqt oladi	AI yordamida 60 soniyadan kam
Vaqt va qulaylik	an’anaviy banklar esa ma’lum ish vaqtida faoliyat yuritadi.	Raqamli bank xizmatlari 24 soat davomida mavjud
Xarajatlar	An’anaviy banklarda esa ofislar, xodimlar va boshqa xarajatlar ko‘proq bo‘ladi.	Raqamli banklar kamroq xarajat bilan ishlaydi, chunki filiallar kam bo‘ladi.
Operatsion model	Markazlashgan an’anaviy tizim	Markazlashgan, DeFi yoki gibrid

Muammo: An’anaviy bank tizimi ko‘plab byurokratik jarayonlar va vaqt talab qiluvchi xizmatlar bilan ajralib turadi.
Maqsad: Raqamli bank tushunchasini ochib berish va an’anaviy banklardan farqlarini tahlil qilish.
Texnologik yechimlar va xavfsizlik: Raqamli banking muvaffaqiyati uning xavfsizlik mexanizmlariga bog‘liq. Platformalar pul yuvishga qarshi kurash (AML) va firibgarlikning oldini olish maqsadida investorlarning shaxsini tasdiqlashni talab qiladi.
KYC (Mijozingni tani): Pasport, yuzni tanish (facial recognition) va biometrik tekshiruvlar.

AI Tahlili: Sun’iy intellekt yordamida arizalarni 94% gacha avtomatlashtirilgan holda qayta ishlash.
Ma’lumotlar himoyasi: Ikki faktorli autentifikatsiya (2FA) va kirishni nazorat qilish.
O‘zbekiston kontekstidagi holat va muammolar: O‘zbekistonda 2020-yilgi hukumat qarori IT loyihalar uchun innovatsion moliyaviy mexanizmlarni yaratishni maqsad qilgan bo‘lsa-da, uning joriy etilishi past darajada qolmoqda.

Asosiy to‘siqlar:

Regulyatorlik bo‘shliqlari: Aniq qonunchilik bazasining yo‘qligi hozirgacha muammo bo’lib qolmoqda.
Ishonch masalasi: Avvalgi platformalar (masalan, Factor.uz) faoliyatini to‘xtatganligi sababli yuzaga kelgan salbiy tajriba.
Kredit reyting tizimi: Ishtirokchilarning ishonchli reyting tizimi hali to‘liq shakllanmagan. Raqamli banking moliyaviy xizmatlarga kirishni demokratlashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Biroq, bu model investitsiya qaytarilishi kafolatining yo‘qligi va firibgarlik kabi xavflarni ham o‘z ichiga oladi.

Metodologiya

Tadqiqotimizda qiyoslama tahlildan foydalandik. Qiyosiy tahlil ko‘pincha muayyan jarayonlarning o‘zgarishlar dinamikasini o‘rganish, farq va umumiy xususiyatlarni izlash uchun ishlatiladi. Tahlil yordamida biz har qanday hodisaning, rivojlanishning turli bosqichlarida (vaqt, hodisa va hokazo) o‘rganilayotgan jarayonning umumiy va turli belgilari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lamiz**.**

Tahlil va natijalar: Raqamli taraqqiyot bank sektorini o'z mijozlarini onlayn-segmentga o'tkazishga qanchalik harakat qilmasin, filiallar tarmog'ining mavjudligi va rivojlanishi yagona kredit tashkiloti xizmatlarining mavjudligi ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi, buning sababi quyidagi holatlarga:
- bir qator kredit tashkilotlarida ko'plab funksiyalar Internet orqali mavjud emas;
- aholining katta qismi an'anaviy xizmatlar tarafdori bo'lib qolmoqda;
- masofaviy identifikatsiyalash endigina rivojlana boshladi.

Ilmiy yangilik: Raqamli banklarning texnologik asoslari kompleks o‘rganildi.

Asosiy qism

1. Raqamli bank tushunchasi: Raqamli bank – bu barcha bank xizmatlarini mobil ilovalar va internet orqali taqdim etuvchi bank turidir.
2. Farqlari: An’anaviy bank – filialli, sekin xizmat; Raqamli bank – 24/7 xizmat, tezkorlik, qulaylik, arzonlik.
3. Xavfli tomonlari: Kiberxavfsizlik, firibgarlik.
4. O‘zbekistonda rivojlanishi: Internet va mobil texnologiyalar asosida rivojlanmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli banklar zamonaviy texnologiyalar asosida ishlaydigan, tezkor va qulay bank xizmatlarini taqdim etuvchi tizimdir. An’anaviy banklar esa uzoq vaqt davomida shakllangan an’anaviy xizmat ko‘rsatish usullariga ega. Bugungi kunda ko‘plab banklar raqamli texnologiyalarni joriy etib, mijozlarga yanada qulay xizmat ko‘rsatishga intilmoqda. Raqamli banklar zamonaviy iqtisodiyotning muhim qismi hisoblanadi. Ular qulay va tez xizmat ko‘rsatadi, lekin xavfsizlik masalalari muhimdir.

Tavsiyalar: Kiberxavfsizlikni kuchaytirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish, hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirish kerak

Regulyatorlar uchun: Innovatsion texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish uchun "regulyatorlik qumloqlari"ni (sandboxes) yaratish.

Banklar uchun: Mijozning chuqur tekshiruvi (CDD) chegaralarini xalqaro standartlarga (masalan, €10,000) moslashtirish.

Aholi uchun: Moliyaviy savodxonlikni oshirish va investitsiyalarni diversifikatsiya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Digital Transformation in Banking 2019, https://www.salesforce.com/financial-services/digital-transformation-banking/

2. OECD Reports 2022, https://www.oecd.org/en/publications/oecd-economic-outlook/volume-2022/issue-2_f6da2159-en.html

3. World Bank. (2021). Financial Inclusion and Digital Banking World Bank Group Report. Retrieved from https://www.worldbank.org/

4. Eisenstein, P., & Lee, J. (2022). The Role of Artificial Intelligence in Digital Banking Services: Opportunities and Risks. Financial Technologies Review, *3(2), 78-89*

5. O‘zbekiston MB ma’lumotlari, https://cbu.uz/uz/

STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —